

## KREDIT REYTING AGENTLIKALARINING REYTING BELGILOVCHI ASOSIY OMILLARI

**Mamadaliyev Poziljon Mansurjon**  
**o‘g‘li**  
**e-pochta [poziljon97@icloud.com](mailto:poziljon97@icloud.com)**  
**Tel:+998994337077**

### Annotation

Ko'plab mamlakatlar, kompaniyalar, bank, sug'urta tashkilotlari, korporatsiyalar, umuman olganda xorijiy qarz mablag'lari va investitsiya jalb qilishni istagan har qanday tashkilot o'z reyting darajasini baholatish uchun ko'pgina kredit mablag'larini beruvchi yoki investitsiya tashkilotlari ishonchli deb bilgan reyting agentliklariga murojat qilishadi. Standard & Poor's, Moody's va Fitch Ratings agentliklari eng yirik agentliklar hisoblanib, moliya bozorining aksari ishtirokchilari shu agentliklar tomonidan chiqarilgan reyting ma'lumotlaridan foydalanadilar.

**Kalit so'zlar:** reyting, kompaniya, bank, sug'urta tashkilotlar, korporatsiya, qimmatli qog'ozlar, investor.

Standart&Poor's Global Rating agentligi bugungi kunda 26 tada mamlakatda faoliyat olib boradi. S&P butun dunyo bozor kapitallashuvining 99% ni qamrab oladigan, yiliga 135 trln atrofida moliyaviy ma'lumotlarni chuqur tahlil qilgan holda emitetlarning reytingini baholaydi. S&P reyting agentligi nazorat qilish, axborotlar to'plash, ularni tartibga solish va shular asosida bashorat qilish kabi bir qator funksiyalarini bajararadi.

Moody's reyting agentligi xususiy va davlat tashkilotlari tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha xalqaro moliyaviy reyting ko'rsatgichlarini baholaydi. Moody's reyting agentligi banklar va boshqa moliya institutlari uchun jahon kapital bozorida ma'lum bir qimmatli qog'ozlarning kredit risklarini baholashda muhim rol o'ynaydi. Moody's tomonidan chiqarilgan reyting baholari investorlar va biznes sferasi uchun moliyaviy qarorlarni qabul qilishida asos juda muhim ma'lumot bo'lib xizmat qiladi. Moody's katta hajmli axborot resurslari va innovatsion texnologiyalardan foydalangan

holda investorlarni dunyo bozorlarida ishonchli harakat qilishlariga uchun yetarliga ma'lumot bilan ta'minlashga yordan beradi. Quydagi jadvalda Moody's agentligining reytingni belgilovchi asosiy omillari keltirilgan.

## 1-jadval

### Moody's agentligining reytingni belgilovchi asosiy omillari<sup>8</sup>

#### *Asosiy omillar guruhi*

#### *Guruhdagi omillar*

<i>I omil:</i>	O'sish dinamikasi
<i>Iqtisodiy kuch</i>	Iqtisodiyotning hajmi
	Milliy daromad
<i>II omil:</i>	Institutsional asos va samaradorlik
<i>Institutsional kuch</i>	Siyosatning ishonchliligi va samaradorligi
<i>III omil:</i>	Qarz yuki
<i>Fiskal kuch</i>	Qarzlarni to'lash imkoniyatini mavjudligi
	Siyosiy risk
<i>IV omil:</i>	Likvidligi riski
<i>Turli risklarga ta'sirchanlik</i>	Bank sektoridagi risklar
	Tashqi ta'sirlarga bog'liq risk

Bu yerda asosiy omillar 4 guruhgaga ajratilgan va har bir guruhda shu guruhga kiruvchi omillar qatori berilgan.

Fitch retingi agentligi banklar, davlatlar va kompaniyalarning moliyaviy holatini chuqur tahlil holda ularning kredit reytinglarini aniqlaydi. Fitch reytinglari emitentlarning moliyaviy majburiyatları bo'yicha foizlarni to'lash qobiliyatini baholaydi. Investorlar S&P, Moody's agentliklari bilan bir qatorda Fitch kredit reyting ma'lumotlariga asoslanib qaror qabul qiladilar, chunki ular kiritayotgan sarmoyalarini qaytish ehtimoligini amaldagi shartlarda sarmoyaning qaytarilishini bashorat qiladi. Reyting agentligi korporatsiyalar, sug'urta va moliya tashkilotlari, banklar shuningdek, davlat moliya

<sup>8</sup> Moody's Investors Service (2015). Note: each sub-factor encompasses one or more indicator, like average real GDP growth and volatility, nominal GDP, GDP per capita, inflation level and volatility, etc.

organlari va shu kabi emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va boshqa majburiyatlarni ham baholaydi.

Standard & Poor's, Moody's, Fitch va boshqa reyting agentliklari o'zlari ishlab chiqqan metod asosida mavjud bo'lgan axborotlardan foydalanib 100 dan ortiq indikatorlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Natijalar birlashtirilib suveren kredit reyting ko'rsatgichlari aniqlanadi va maxsus harflar, sonlar va plus (+), minus (-) ishoralari yordamida ifodalanadi.

“Yirik uchlik” deb nom olgan S&P, Fitch va Moody's reyting agentliklari tomonidan so'ngi 20 yil ichida berilgan reytinglar va ularni tarkibiga kiruvchi ko'rsatkichlar asosida suveren reyting modeli ishlab chiqildi. Reyting berish metodologiyasi shundan iboratki, u yakuniy bosqichda mamlakatdagi mavjud vaziyatni boshqa davlatlar bilan taqqoslashni taqozo etadi. Bu shuni anglatadiki, vaqt o'tishi bilan mamlakatlarga nisbatan yuqori reytinglarni berish uchun yanada kuchli talablar qo'yiladi, bu esa ushbu reytinglarni oladigan mamlakatlar sonini saqlab, o'rganilayotgan davlatlar obligatsiyalarining ishonchlilik darajasining umumiy o'sishini anglatadi, ammo eng yuqori reytingga ega davlatlar soni deyarli o'zgarmoqda.

## Foydalilanigan adabiyotlar

1. Moody's Investors Service (2015). Note: each sub-factor encompasses one or more indicator, like average real GDP growth and volatility, nominal GDP, GDP per capita, inflation level and volatility, etc.